
JINOYATCHILIK VA HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH-DOLZARB VAZIFA

Qo'shtepa tumanidagi Madaniyat markazida Farg'ona viloyati IIB boshlig'i, polkovnik D.Tashxodjayev ishtirokida tumanda jinoyat va huquqbuzarliklarning sodir etilish sabablari va oqibatlari ochiq muloqot tarzida muhokama qilindi.

Tadbirda Qo'shtepa tumani IIB boshlig'i S.Abdullayev, tuman hokimi o'rinbosari A.Yusupov hamda huquqni muhofaza qilish idoralari, mahalla fuqarolar yig'ini raislari, tumandagi tashkilot va muassasalar, mahalla faollari va ommaviy axborot vositalari ishtirok etdilar.



ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Shuningdek, tumanda sodir etilayotgan yo'l transport hodisalari ham muhokama qilindi. Tadbir qatnashchilariga yo'l harakati qoidalariga har bir fuqaro amal qilish shartligi, haydovchi bilan birga piyodalar ham harakat xavfsizli qoidalariga rioya qilishi lozimligi, birgina xato tuzatib bo'lmas oqibatlariga olib kelishi mumkinligi tushuntirib o'tildi.



Muloqot chog'ida so'z olganlar har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, bu borada befarqlik, loqaydlik holatlariga barham berish, hududlarda jinoyatchilikni oldini olish va bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan chora-tadbirlar xususida o'z fikr-mulohazalarini bildirdilar.

Qo'shtepa tumani hokimligi Axborot xizmati.

2021-01-20 12:49:25